

**O'ZBEK TILIDA PARONIMIYA VA UNGA YONDOSH
HODISALAR XUSUSIDA**

Ozatova Nodira Quvondiq qizi

tayanch doktorant

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida paronimiya va unga yondosh til hodisalari lingvistik nuqtai nazardan har tomonlama tahlil qilinadi. Paronimlarni noto'g'ri qo'llash natijasida yuzaga keladigan nutqiy xatolar va ularning til madaniyatiga salbiy ta'siri yoritiladi. Paronimlarni farqlash va ularni o'rinni ishlatish nutq madaniyati, matn aniqligi va til ifodaviyligini oshirishda muhim omil ekaniga ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada tilshunoslik nazariyasi va amaliyotida paronimiya hodisasini o'rghanishning dolzarbliji asoslanadi va bu sohadagi tadqiqotlarning til madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: paronimiya, variatsiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya, morfem tarkib, talaffuz, leksik ma'no, nutqiy chalkashlik.

Abstract. This article provides a comprehensive linguistic analysis of paronymy and related linguistic phenomena. It highlights the speech errors that arise from the incorrect use of paronyms and their negative impact on language culture. The article emphasizes that distinguishing paronyms and using them appropriately is an important factor in improving speech culture, textual clarity, and language expressiveness. Furthermore, the relevance of studying the phenomenon of paronymy in linguistic theory and practice is substantiated, and the significance of research in this field for the development of language culture is revealed.

Keywords: paronymy, variation, homonymy, synonymy, antonymy, morphemic structure, pronunciation, lexical meaning, speech confusion

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируются паронимия и смежные языковые явления с лингвистической точки зрения. Освещаются речевые ошибки, возникающие в результате неправильного употребления паронимов, и их негативное влияние на языковую культуру. Подчеркивается, что различие паронимов и их уместное использование являются важным фактором повышения речевой культуры, точности текста и выразительности языка. Кроме того, в статье обосновывается актуальность изучения явления паронимии в теории и практике лингвистики, а также раскрывается значение исследований в данной области для развития языковой культуры.

Ключевые слова: паронимия, вариация, омонимия, синонимия, антонимия, морфемный состав, произношение, лексическое значение, речевая путаница.

Paronimiya borliq-insoniyat-jamiyat uchligi o'rtasidagi munosabatlarni, aloqadorlikni ifodalash uchun xizmat qiladigan lisoniy hodisalar sirasiga kirib, tilda va kommunikatsiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu til hodisasi so'zlarning talaffuzi, yozilishi va morfem tarkibi jihatdan o'xshash, biroq leksik ma'nolari boshqa-boshqa yoki qisman yaqin bo'lgan so'zlar o'rtasidagi munosabatdir. Boshqacha qilib aytganda, paronimlar — yunoncha “para”- yaqin, yaqinidagi, yondosh, o'xshash, “onuma”-nom bo'lib, o'xshash ko'rinishdagi, lekin ma'nosи farqli so'zlar hisoblanadi. Masalan, o'zbek tilida “ta'rif” va “tarif”, “tanbur” va “tambur”, “afzal” va “abzal” so'zleri paronimlarga misol bo'ladi [6].

Paronimiyaning tilshunoslikdagi ahamiyati shundaki, bunday birliklarni nutqda noto'g'ri qo'llash chalkashlik va ma'no xatoliklariga olib keladi. Paronimlarni farqlay bilmaslik, ularni adashtirib ishlatish nutqiy xato hisoblanadi va til madaniyatining yetarli darajada egallanmaganligidan dalolat beradi. Misol uchun, “adib” o'rniga “adip”, “asr” o'rniga “asir” so'zlarini ishlatish ma'noni butkul o'zgartiradi va tushunmovchilikka sabab bo'ladi. Bunday xatolar ayniqsa kam tanish yoki yangi so'zlarda, terminlarda ko'p uchraydi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Ta'kidlash joizki, paronimiya tilning tabiiy hodisasi bo'lib, so'zlarning o'xshashligi yozma va og'zaki nutqda chalkashliklarga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, paronimlarni to'g'ri farqlash va qo'llash til madaniyati va nutq samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Yozma tilda paronimlarni noto'g'ri yozish natijasida matn ma'nosi buziladi. Masalan, "borliq" (inson onggi va sezgisidan tashqaridagi obyektiv dunyo, mavjudot; vujud; barcha, hamma) o'rniga "borlik" (mavjudlik; boylik; to'qlik) yozilishi matnni noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi. Yoki "tovlanmoq" o'rniga "toblanmoq" yozilishi butun bir gapning ma'nosini o'zgartiradi.

Talaffuzdagi o'xshashlik sababli esa paronimlar chalkashib, noto'g'ri tushunish yoki noto'g'ri ma'no yetkazilishiga olib keladi. Masalan, "tanbur" va "tambur" so'zлari talaffuz jihatdan yaqin bo'lib, noto'g'ri ishlatilganda suhbatdoshni chalg'itishi mumkin.

Paronimlar quyida keltirilgan jihatlari bilan o'zining tilshunoslikdagi ahamiyatini yanada to'liqroq namoyon qiladi:

- paronimlarni to'g'ri farqlay olish va ularni o'rinci ishlatish nutq madaniyatini oshiradi, nutqda noaniqlik va xatolarning oldini oladi;

- paronimlar badiiy adabiyot, publitsistika va ommaviy so'zlashuv tilida matnning ifodaviyligi va ta'sirchanligini oshirishda keng foydalaniladi. Ularni ataylab adashtirib ishlatish so'z o'yinlari, kulgili holatlar yoki personajlarning nutqiy xususiyatlarini ochib berishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi;

- paronimlarni o'rganish, ularning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish tilshunoslikning muhim yo'naliшlaridan biri hisoblanadi va bu sohada nutq madaniyati hamda uslubshunoslik alohida ahamiyat kasb etadi.

Chunonchi, paronimlar til boyligini, nutq ifodaviyligini va aniqligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi hamda tilshunoslikda o'rganilishi zarur bo'lgan muhim leksik birliklardan sanaladi.

Paronimiya hodisasining lingvistik tabiatini nazariy va amaliy jihatdan to'laqonli ko'rib chiqish, o'z navbatida, unga yondosh til hodisalari, jumladan, variatsiya, polisemiya, omonimiya, sinonimiya va antonimiya kabi leksik hodisalar

bilan o'zaro umumiy va farqli jihatlarini tahlil qilishni taqazo etadi.

Paronimiyaga yaqin, ya'ni yondosh til hodisalaridan biri variatsiyadir. Variatsiya yoki variantlilik deyilganda til birliklari majmuidagi ma'lum birliklarning turli xil fonetik va morfemik, leksik o'zgarishi va shu o'zgarish natijasida yuzaga kelgan shakllar tushuniladi.

Xususan, Tilshunoslikda variatsiya (lotincha *variatio* — o'zgarish) hodisasi — bu til birliklarining (so'z, morfema, fonema va boshqalar) fonetik, morfologik yoki leksik jihatdan turli shakllarda namoyon bo'lishi, ya'ni bir lisoniy birlikning turli variantlari mavjud bo'lishi holatidir. Masalan, so'zlarning shevalarga yoki og'zaki va yozma nutqqa xos variantlari: oftoba (adabiy), oftova/optova (so'zlashuv), optova (sheva) [5:290]. Shuningdek, kaptar – kabutar, martaba – marotaba, lekin – lokin kabi fonetik variantlar ham variatsiya hodisasiga misol bo'ladi. Variatsiya bir qarashda paronimiya bilan aynan bir xil til hodisasi bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin ular o'rtasida ma'no va shakl jihatdan farqlar mavjud:

- paronimlar talaffuzi va tuzilishi o'xhash, biroq ma'nosi har xil yoki qisman yaqin bo'lgan so'zlar bo'lsa, variantdosh so'zlar deganda bir lisoniy birlikning fonetik, morfologik yoki leksik variantlarda namoyon bo'lishi nazarda tutiladi;

- ma'no munosabatiga ko'ra paronimlar ma'nosi o'zaro har xil yoki qisman yaqin bo'lishi mumkin, ammo to'la mos kelmaydi. Variantdosh so'zlarning ma'nosi bo'lsa bir xil yoki juda yaqin bo'ladi, asosan, bir tushunchani bildiradi;

- paronim va variantdosh so'zlarning yaqqol ko'zga tashlanuvchi muhim farqli jihatlaridan biri bu ularning qo'llanilish imkoniyatlaridadir, ya'ni paronimlarni bir-birining o'rnida almashtirib qo'llab bo'lmaydi, aks holda bu kontekstning ma'nosiga putur yetkazadi. Variantdosh so'zlar esa bir-birining o'rnida ishlatalishi mumkin, chunki bunday birliklarning ma'nosi bir-biriga to'la mos keladi;

- paronimlar odatda uslubiy betaraf birliklar sanalsa, variantdosh so'zlar uslubiy jihatdan farq qilishi, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek shevaga, so'zlashuvga yoki badiiy nutqqa xos bo'lishi mumkin.

Shu kabi paronimiyaga yondosh til hodisalaridan yana biri bu polisemiya yoki ko'p ma'nolilik bo'lib, u ko'p qirrali va murakkab hodisa sanaladi. Polisemiya —

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bu til birliklarining (asosan so‘zlarning) bir nechta ma’noga ega bo‘lishi hodisasi bo‘lib, bu ma’nolar o‘zaro semantik jihatdan bir-biri bilan bog‘liq bo‘ladi. Polisemantik so‘zlarning asosiy xususiyatlaridan biri ham aynan ularning anglatgan ma’nolari o’rtasida semantik bog’lanishning mavjudligi bo‘lib, ular kontekstga qarab farqlanadi. Masalan, onamning *ko‘zi* hali yaxshi ko‘radi (a’zo); buloqning *ko‘zi*, ignaning *ko‘zi* (teshik); uzukning *ko‘zi* (uzukka qo‘yilgan tosh); taxtaning *ko‘zi* (taxtadagi doira shakl).

Polisemantik birliklar ikki usul orqali hosil bo‘ladi:

- 1) so‘zning yangi ma’no kasb etishi natijasida. Masalan, yer so‘zi dastlab bir ma’noli bo‘lgan, qolgan ma’nolar so‘zning ma’no tarkibi taraqqiyoti natijasida paydo bo‘lgan.
- 2) ko‘p ma’noli so‘zdan yoki ko‘p ma’noli qo‘shimcha vositasida so‘z yasalishi natijasida [3:48-50].

Paronimiya va polisemiya yozilish va talaffuz jihatidan bir-biriga o‘xhash til hodisalari bo’lsada, ular o’rtasida farqli jihatlar mavjud. Paronimlar talaffuzi va yozilishi o‘xhash, lekin ma’nosi har xil bo‘lgan ikki yoki undan ortiq leksemalardir.

Masalan, *shox– shoh*

Polisemiya esa aynan bir leksemaning bir nechta bir-biri bilan semantik jihatidan aloqador ko‘p ma’nolarining mavjud bo‘lishi hodisasi hisoblanadi. Masalan, *bosh* so‘zi: *bosh* (tananing qismi), *bosh* (rahbar), *bosh* (boshanish), *bosh* (miqdor).

Navbatdagi paronimiyaga yondosh til hodisasi sifatida omonimiyani sanab o’tish mumkin. Paronimiya va omonimiya o‘zbek tilida so‘zlarning talaffuzi va yozilishi jihatidan o‘xhash yoki bir xil bo‘lishi mumkin bo‘lgan til hodisalari bo‘lib, ular orasida asosiy farq semantik bog’lanish va ma’no munosabatidadir. Paronimlar — talaffuzi o‘xhash, leksik ma’nosi boshqa bo‘lgan so‘zlar bo‘lsa, omonimlar — bir xil yozilgan va talaffuz qilingan, lekin ma’nolari bir-biridan mutlaqo farq qiladigan so‘zlardir. Masalan, *olma* (meva nomi) — *olma* (fe'l: “-ma” bo‘lishsizlik qo‘shimchasini olgan ish-harakat); *tom* (uy tomi) — *tom* (kitob tomi). So‘zlar orasidagi ma’no va shakl munosabatiga asoslanuvchi til hodisalari hisoblanadigan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

sinonimiya va antonimiya ham paronimiyaga yondosh til hodisalari hisoblanadi. Uchala til hodisalari tilshunoslikda so‘zlar orasidagi leksik munosabatlarning uch muhim turidir. Ular orasidagi farqli jihatlarni ilg’ash nisbatan osonroq.

Sinonimiya- ma’nosi bir-biriga yaqin yoki bir xil bo‘lgan, lekin talaffuzi va yozilishi turlicha bo‘lgan so‘zlar to‘plami. Masalan, katta – ulkan; tez – shoshilinch; yaxshi – zo‘r [1:45-46].

Antonimiya- esa ma’nolari bir-biriga qarama-qarshi, zid bo‘lgan so‘zlar o‘rtasidagi munosabat hisoblanadi. Masalan, katta – kichik; yaxshi – yomon; uzoq – yaqin [2].

Bu hodisalarning barchasi til boyligini oshirishga xizmat qiladi, biroq ular orasidagi asosiy farq – so‘zlarning qaysi jihat (shakl yoki ma’no) asosida bog‘lanishidadir. Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, paronimlar kabi sinonimlar turli leksik birliklar bo‘lsada, ular ma’noda o‘xshashlikka ega bo’ladilar va kontekstga qarab bir-birining o’rnida ishlatilishi mumkin.

Antonimlar o‘rtasida esa ma’no jihatdan to’la qarama-qarshilik, ziddiyat mavjud bo’lib, ularni kontekstga qarab qarama-qarshi ma’noda ishlatish mumkin, lekin bir-birining o’rnida almashtirib bo‘lmaydi.

Paronimiyaga yondosh hodisalar tilning leksik va fonetik tizimini boyitadi, shu boisdan, ularni chuqur tushunish tilshunoslikda ham nazariy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Paronimlarni farqlash va ularning xususiyatlarini bilish nutq madaniyati, leksik aniqlik va tilni to‘g‘ri qo‘llash uchun zarurdir. Ayniqsa, paronimlarning o‘xshash talaffuzi va yozilishi ko‘pincha nutqda noto‘g‘ri talqin va chalkashliklarga olib keladi, bu esa tilning ifodaviyligini pasaytiradi va kommunikatsiya samaradorligini kamaytiradi.

Tilshunoslik nazariyasi doirasida paronimiya hodisasini o‘rganish tilning fonologik, morfologik va semantik tizimlarini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi. Amaliy tilda esa paronimlarni to‘g‘ri farqlash va qo‘llash tarjima, matn tahriri, til o‘rgatish va stilistika sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, paronimiyaga oid tadqiqotlarni davom ettirish va keng jamoatchilikni bu borada

xabardor qilish til madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, paronimiya va unga yondosh hodisalarini chuqur o'rghanish tilshunoslik nazariyasi uchun va kommunikatsiya jarayonida nutq aniqligi, ifodaviylik va madaniyatini ta'minlashda muhimdir. Kelajakda bu sohada olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar va o'quv-uslubiy ishlar til madaniyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.
- 2.Маматқұлов О. Ўзбек тилида синонимия ва антонимия. – Тошкент: Ўқитувчи, 2004.
- 3.Миртоҗиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1984.
4. **Sultonov S. Tilshunoslik asoslari.** – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
5. **O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom.** – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
6. **G'afurov N. va boshqalar. O'zbek tili leksikologiyasi.** – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2015.